

Qurbonova Feruza Maxamatjon qizi,
Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika
fakulteti «Pedagogika va psixologiya» kafedrası
o'qituvchisi

TALABALARDA KASBIY IDENTIFIKATSIYA PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR PREDMETI SIFATIDA

UDK: 159.9.07

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_2_4](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_2_4)

QURBONOVA F.M-Q. TALABALARDA KASBIY IDENTIFIKATSIYA PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR PREDMETI SIFATIDA

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarni kasbiy identifikatsiyasini rivojlanish uchun ta'lim sohasidagi munosabatlar va ishtirokchilar o'rtasidagi ilmiy va amaliy tadqiqotlariga bag'ishlangan. Talabalarda kasbiy rivojlanishda ijtimoiy muhitni o'rni hamda pedagogik- psixologik xususiyatlar haqida so'z yuritiladi. Talabalarida pedagogik kasbiy identifikatsiyasini shakllantirish va rivojlantirish usullari haqida ma'lumotlar berilgan.

Tayach so'z va tushunchalar: kasbiy identifikatsiya, psixologik xususiyatlar, hamkor tashkilotlar, professional kompetensiyalar, shaxsiy va kasbiy rivojlanish, pedagogika tushunchasi hamkorlik, qonunchilik ta'lim dasturlari, uzluksiz ta'lim.

КУРБОНОВА Ф.М-К. ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ИДЕНТИФИКАЦИЯ СТУДЕНТОВ КАК ПРЕДМЕТ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Статья посвящена научно-практическому исследованию взаимоотношений и участников сферы образования по формированию профессиональной идентификации студентов высших учебных заведений. Обсуждается роль социальной среды в профессиональном развитии студентов, а также ее педагогические и психологические особенности. Студентам была предоставлена информация о методах формирования и развития их педагогической профессиональной идентичности.

Ключевые слова и понятия: профессиональная идентификация, психологические характеристики, совместные организации, профессиональные компетенции, личностное и профессиональное развитие, педагогическое понимание сотрудничества, законодательные учебные программы, непрерывное образование.

KURBONOVA F.M-Q. PROFESSIONAL IDENTIFICATION IN STUDENTS AS A SUBJECT OF PSYCHOLOGICAL RESEARCH

This article is devoted to scientific and practical research on the relationship between students and their partners in the field of education in order to develop their professional identity in higher education institutions. The role of the social environment in the professional development of students, as well as pedagogical and psychological characteristics, is discussed. Information is provided on the methods of forming and developing pedagogical professional identity in students.

Key words and concepts: professional identification, psychological characteristics, collaborative organizations, professional competencies, personal and professional development, pedagogical understanding of collaboration, legislative curricula, continuing education.

Kirish. Bugungi kunga kelib ta'lim sohasiga juda katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri ta'lim tizimiga juda katta o'zgarishlar kiritdi. Mazkur qonunning 35-moddasida "O'quv rejasida, qoida tariqasida, ta'lim jarayonining jadvali, o'qitishning boshlanishi, muddati va davriyligi, o'quv yillari, choraklar, semestrlar, amaliyot, ta'tillar hamda attestatsiya, ajratilgan haftalar soni, o'rganiladigan fanlar (modullar) va ularga ajratilgan soatlar (kreditlar) hamda boshqa zarur parametrlar aks ettiriladi"¹. Ta'lim oluvchilarning amaliyotni o'tash tartibi va uni tashkil etish ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi. Amaliyotlar bakalavr ta'lim jarayonining majburiy qismi bo'lib, talabalarining kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko'nikmalari va kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Bakalavrlar tayyorlashda ko'plab amaliyot turlari o'tkaziladi. Shulardan biri pedagogik amaliyotdir.

Mavzuning dolzarbligi. Jahonda fan va texnologiyalar taraqqiyotining jadallik bilan amalga oshishi, raqamli iqtisodiyotga o'tish bilan bog'liq jarayonlar yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa o'z navbatida, globallashuv va integrallashuv sharoitida barcha sohalarida kuchli raqobat muhitini shakllantirib, pirovardida ta'lim sohasiga nisbatan ham yangi talablarni qo'yimoqda. Jahonda XXI asrga kelib barcha sohalarida, iqtisodiy va ijtimoiy omillarda jadal rivojlanishni taqozo etdi. Shunga muvofiq ravishda jamiyatning chuqur ilmiy ahamiyatga ega manbalarga tayanishi va shu borada jamiyat hayotining barcha sohalarida yuqori malakali mutaxassislariga ijtimoiy ehtiyoj kuchayib boradi. Bu oliy ta'lim muassasalariga innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish zarurligini va kelajak kadrlarning raqobatbardoshligini ta'minlovchi pedagogik dasturlar talabini qo'ydi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarini tashkil etish har qachongidan ham muhim va maqsadli ravishda kompetentsiyaga yo'naltirilgan ish bo'lib qolmoqda. Shu o'rinda oliy ta'lim muassasalariga zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash eng ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jamiyatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar o'quvchilarning turli sohalar bo'yicha bilim

olishlariga, kasbiy ko'nikma va bilimlarini shakllantirishlariga, o'quv tarbiyaviy tadbirlar tizimiga ta'sir etmasdan qolmaydi. Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida nazariy bilimlar qatori amaliy ko'nikmalarni hosil etish dolzarb masaladir. Yoshlar ongida ilm-ma'rifatga, kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish professional ta'lim samaradorligi uchun muhim omil hisoblanadi.

Mehnat bozoridagi o'zgarishlarning jadal sur'atlari, axborot oqimining kuchayishi va tanlov qilish uchun ko'plab imkoniyatlar mavjudligi bilan ajralib turadigan jamiyat yoshlarning oldiga yuqori talablarni qo'yadi. Ular o'zlari uchun mavjud bo'lgan tanlov va imkoniyatlarni va turli xil tanlovlar va qarorlar qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tushunishlari kerak. Shu nuqtai nazardan, masalan, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi maslahatchilar va o'qituvchilar yoshlarni ushbu murakkab dunyoda harakat qilishda, qo'llab-quvvatlashda markaziy ro'l o'ynaydi. Tadqiqotlar ta'lim va kasb tanlashda tanlash erkinligi, stress, bosim va ruhiy kasalliklarga qanday hissa qo'shishi mumkinligini aniq ko'rsatdi. Turli xil ijtimoiy-iqtisodiy guruhlariga bir xil sharoitlarda tanlash imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash va shu tariqa yoshlarning o'qish va kasb tanlash jinsi yoki ijtimoiy-iqtisodiy yoki madaniy xususiyatlari bilan cheklanishiga yo'l qo'ymaslik uchun rahbarlik va qo'llab-quvvatlash ham muhimdir.

Xorijiy davlatlarda o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini takomillashtirishning ilmiy masalalari Marta Ruiz-Corbella², A.Cropley³, Benjamin Crowell⁴, John Dirk Walecka⁵, D.Schaeffer⁶ tomonidan tadqiq qilingan.

MDH mamlakatlarida o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy

² Marta Ruiz-Corbella Philosophy of Education and Education in Competences in the context of the European Higher Education Area // Philosophy of Education. 2011. № 4 (37). P. 5-17.

³ Cropley A. Using Assessment to Foster Creativity. - Singapore: World Scientific. 2007. Pp. 209-230.

⁴ Benjamin Crowell. Newtonian Physics// Light and Matter / Fullerton, California-2012. Benjamin Crowell Revolution in Physics The Modern Light and Matter Fullerton, California-2012

⁵ John Dirk Walecka. Introduction to Modern Physics// College of William and Mary:USA, Jul -2008.

⁶ Schaeffer, D. (2002). Science Education and Capacity Building for Sustainable Development. ICSU Series on Science for Sustainable Development.-5. 31 p.

¹ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020). - O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.

izlanishlarda quyidagi olimlar: G.V.Abramyan¹, K.Angelovski², R.S.Arefyev³, O.R.Badaguyeva⁴, V.V.Davidov⁵, M.V.Seliverstova⁶, V.D.Shadrikov⁷, K.A.Abulxanova-Slavskaya⁸, Ye.V.Ananina⁹, L.A.Dementeva¹⁰, E.F.Zeer¹¹, Ye.A.Klimov¹², A.V.Mudrik¹³, L.P.Krivshenko¹⁴, kabi olimlar tomonidan olib borilgan.

Tadqiqot doirasida yurtimiz olimlari tomonidan o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalari va metodik tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan bir qancha ilmiy tadqiqot ishlarini

ham tahlil qildik. Tadqiqot muammosiga oid olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarni kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish, kasbiy rivojlantirish masalalari bo'yicha yurtimiz pedagog olimlaridan Z.Artikbayeva¹⁵ malaka oshirish jarayonida maktab matematika o'qituvchilari kasbiy ko'nikmalarini takomillashtirishning pedagogik asoslari, rivojlantiruvchi ta'lim vositasida matematika o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish yo'llari, N.A.Muslimov¹⁶ bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish masalalari, G.E.Karlibayeva¹⁷ bo'lajak fizika o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, I.Y.Raxmonov¹⁸ geometriyani o'qitish jarayonida talabalarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyasi, M.I.Toshpo'latova¹⁹ bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, T.T.Shaymardonov²⁰ pedagog kadrlar malakasini oshirish va kasbiy faoliyati monitoringini tashkil etish mazmuni, ko'rsatkichlari, infratuzilmasi, dasturiy va metodik ta'minoti, axborot resurslarini shakllantirish tizimi, D.O.Ximmataliyev²¹ pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar.

¹ Абрамян Г.В. Теоретические основы профессионального становления педагога в информационной среде: автореф. дисс.пед.наук. – Санкт-Петербург: 2001. -39 с.

² Ангеловски К. Учителя и инновации. Книга для учителя. – М.: Просвещение, 1991, -С.159.

³ Арефьев Р.С. Формирование готовности к самопроектированию коммуникативной компетентности у студентов педагогического вуза: дисс.....канд.пед.наук. – С.: 2004. - 190 с.

⁴ Бадагуева О.Р. Формирование готовности будущего учителя к инновационной деятельности в условиях педагогического колледжа: автореф. ... дисс.пед. наук. – Улан-Удэ, 2006. -24 с.

⁵ Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. / Результаты экспериментальных исследований. – М.: Директ-Медиа Паблишинг, 2008. - 613 с.

⁶ Селиверстова М.В. Формирование управленческих компетенций учителя в условиях развития современного образования. Дисс. канд.пед.наук. – Ижевск: 2011. -212 с.

⁷ Шадриков В.Д. Новая модель специалиста: инновационная подготовка и компетентностный подход // Высшее образование сегодня. – М., 2004. - № 8. - С. 26-31.

⁸ Абульханова-Славская К.А., Березина Т.Н. Время личности и время жизни. -Санкт-Петербург: Алетей, 2001. - 304 с.

⁹ Ананьина Е.В. Исследование готовности старшеклассников к профессиональному самоопределению [Электрон манбаа] / Ананьина Е.В. // "Грамота" Нашриёти. – Интернет манбаа: <http://www.gramota.net/materials/1/2008/4-2/29.html> (23.06.2016)

¹⁰ Дементьева Л.А. Актуальные модели профориентации и формы психологического сопровождения профессионального самоопределения учащихся / Психологическое сопровождение профориентации учащихся и работающих специалистов// Материалы научно-практической конференции. – Курган ГАОУ ИРОСТ, 2015. – С 88.

¹¹ Зеер Э.Ф. Психология профессионального развития: учебное пособие. - М.: Академия, 2009. - 240 с.

¹² Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. - М.: Академия, 2007. -304 с.

¹³ Мудрик А. В. Социализация человека. – М.: Академия, 2006. – 304 с

¹⁴ Крившенко Л.П. Будущему учителю о профессиональном самоопределении школьников. – Москва, 2000. – 99 с.

¹⁵ Artiqboyeva Z.A. Malaka oshirish tizimida maktab matematika o'qituvchilarining kasbiy-metodik ko'nikmalarini takomillashtirish: ped.f.n. ... diss. –T.: 2004. -163 b.

¹⁶ Muslimov N.A. Kasb ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped.f.dok. ...diss. –T.:2007, -315 b

¹⁷ Karlibayeva G.YE. Bo'lajak fizika o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish: pedagogika fanlari doktori (DsS) diss. avtoreferati. –T.: 2018. -58 b.

¹⁸ Raxmonov I.Y. Geometriyani o'qitish jarayonida talabalarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyasi: ped.f.nom. diss. – T.: 2012, -160 b

¹⁹ Toshpo'latova M.I. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish. ped.f.dok. (PhD) diss. – T.: 2017, -148 b.

²⁰ Yuldashev M.A. Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirishda ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish: ped. fan.dok. ...diss. –T.: 2016. -309 b.

²¹ Ximmataliyev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi (texnika oliy ta'lim muassasalari "Kasb ta'limi" yo'nalishlari misolida): ped. fan. dokt. ... diss. – T.: 2018. -248 b.

Tadqiqot maqsadi. Talabalarni pedagogik kasbiy identikligini rivojlantirishni ijtimoiy psixologik imkoniyatlarining nazariy-amaliy va metodik jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqot obyekti. Talabalarni pedagogik kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirishni ijtimoiy psixologik imkoniyatlarini jarayoni tadqiqot obyekti bo'lib, Farg'ona Davlat universiteti (71 nafar boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 31 nafar matematika ta'lim yo'nalishi talabalari), Termiz davlat pedagogika instituti (31 nafar boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 59 nafar geografiya ta'lim yo'nalishi, 63 nafar matematika ta'lim yo'nalishi talabalari), Andijon davlat pedagogika instituti (33 nafar pedagogika ta'lim yo'nalishi, 38 nafar biologiya ta'lim yo'nalishi, 47 nafar matematika ta'lim yo'nalishi talabalari), jami 373 nafar respondentlari jalb etildi.

Tadqiqot predmeti. Talabalarda kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi psixologik omillar tashkil etadi.

Asosiy qism. Kasbiy identifikatsiya - shaxsning o'ziga tegishli ekanligini anglashi kasbiy hamjamiyatga ta'lim darajasi, kasbiy vakolatlari va kasbiy madaniyati, shuningdek, ushbu shaxsni "O'zlaridan biri" ya'ni kasbiy doiraning ichida ekanligini belgilaydigan kasbiy guruhga qo'shilishi bilan ifodalanadi. Kasbiy identifikatsiya shaxsda o'zining professional sifatidagi "Men" qiyofasini shakllantirishning boshqariladigan jarayonining natijasidir. Kasbiy ijtimoiylashish jarayonida shaxs ma'lum kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'ladi, kasbiy tajriba to'playdi, kasbiy jamiyatning standartlarini, qadriyatlarini, tilini o'zlashtiradi va tegishli submadaniyatga qo'shiladi. Kasbiy ijtimoiylashishning o'ziga xos xususiyati shundaki, u ma'lum bir kasbning mavjudligini taxmin qiladi va shaxs sifatida shu kasbda o'zini ko'ra olish sodir bo'ladi. Kasbiy ijtimoiylashiuv va identifikatsiya kasbiy ta'lim va shaxsning kasbiy faoliyati bilan bog'liq. Kasbiy faoliyat - bu ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat bo'lib, uni amalga oshirish uchun maxsus bilim, qobiliyat, ko'nikma, shuningdek, kasbiy jihatdan aniqlangan shaxs xususiyatlarini talab qiladi¹. Kasbiy faoliyat orqali inson o'zini namoyon

qiladi, o'z bilimi, qobiliyatlari, ko'nikmalarini amalga oshiradi, to'plangan tajribasini qo'llaydi, ehtiyojlari va manfaatlarini qondiradi, shuningdek, kasbiy mahoratini oshiradi². Kasbning o'ziga xos shaxsiy shakli mavjud bo'lib, u insonning kuch va imkoniyatlarni qo'llash, qobiliyatlarni amalga oshirishning individual usulini ifodalaydi. Kasbiy identifikatsiya ijtimoiy identifikatsiya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u nafaqat ma'lum bir kasbga ega bo'lgan shaxsning mansubligini aks ettiradi, balki ma'lum bir professional jamoaning bir bo'lagi hisoblanadi. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlik, o'zlashtirish va uni mustaqil amalga oshirish jarayonida shaxsda sodir bo'ladigan o'zgarishlar shaxsning mutaxassis va professional sifatida shakllanishiga olib keladi. Kasbiy faoliyat jarayonida inson o'z bilimlari, ko'nikmalari, mavjud kasbiy tajribasi va malakalarining talablarga mos kelmasligini anglab etsa, muqarrar ravishda inqirozlar, shu jumladan kasbiy identifikatsiya inqirozi yuzaga keladi. Identifikatsiya inqirozi ijtimoiylashuv jarayonini aktuallashtirish uchun turtki bo'lib, uning davomida shakllanadi³. Kasbiy identifikatsiya inqirozi kasbiy o'sish va rivojlanish uchun turtki hisoblanadi.

Talabalarda kasbiy identifikatsiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar ko'p jihatdan ularning o'zini anglash, o'zining kasbiy yo'nalishiga bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Bu omillar quyidagi asosiy faktorlarni o'z ichiga oladi:

1. Oila - Oila talabaning kasbiy identifikatsiya shakllanishidagi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Oila insonning dastlabki qadriyatlarini, ishonchlarini va kasbiy yo'nalishlarga bo'lgan qarashlarini shakllantiradi. Oila a'zolari (ota-ona, aka-uka, opa-singil) orqali talaba o'zining kasbiy qiziqishlari va maqsadlari haqida birinchi tushunchalarni oladi. Oila quyidagi yo'llar bilan ta'sir ko'rsatadi:

• **Kasbiy yo'nalishlar bo'yicha yo'l-yo'riq:** Oila, ayniqsa ota-ona, bolaga kasbiy yo'nalish tanlashda ko'p vaqt o'tadi va uning tanlovini qo'llab-quvvatlaydi. Ota-onaning o'z

¹ E. F. (2003) Kasblar psixologiyasi: darslik. universitet talabalari uchun qo'llanma. 2% nashr, qayta ko'rib chiqilgan, qo'shimcha. M.: Akademik loyiha; Ekaterinburg: Biznes kitob. 336 b.

² Perinskaya, N. A. (2008) Kasbiy sotsializatsiya // Yoshlar sotsiologiyasi. Entsiklopedik lug'at / resp.ed. Yu. A. Zubok, V. I. Chuprov. M.: Akademiya. 606 bet. 447-bet.

³ Kovaleva, A.I. (2008) Identifikatsiya inqirozi // Yoshlar sotsiologiyasi. Entsiklopedik lug'at / resp. ed.

1-jadval. Kasbiy identifikatsiya komponentlari

№	Komponentning nomi	Mazmuni
1	Kasbiy rol	Shaxsning ishlash sohasidagi pozitsiyasi va u bajaradigan vazifalar.
2	Ishga bo'lgan munosabat	Shaxsning kasbiy faoliyatga bo'lgan yondashuvi, ishtiyoqi va ehtirosi.
3	Malaka va bilimlar	Kasbiy sohada o'zlashtirilgan bilimlar, ko'nikmalar va tajriba.
4	Kasbiy qadr- qimmatlar	Shaxsning ishdagi axloqiy me'yorlari, prinsiplar va professional standartlarga sodiqligi.

kasbiy tajribalari va qarashlari, talabani kasbiy yo'lini tanlashda katta rol o'ynaydi.

- **Qadriyatlar va intilishlar:** Oila o'z farzandiga hayotiy qadriyatlarni, mehnatga nisbatan munosabatni va o'z kelajagini rejalashtirishni o'rgatadi. Ota-onalar tomonidan ko'rsatilgan e'tibor va maqsadlar talabani o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

2. Ta'lim muassasalari - Ta'lim muassasasi (maktab, kollej, universitet) talabalarning kasbiy identifikatsiyasi shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Ular nafaqat bilim olish, balki kasbiy yo'nalishni tanlash va kasbiy qadriyatlarni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ta'lim muassasalari quyidagi omillar orqali ta'sir ko'rsatadi:

- **Ta'lim dasturlari va o'qitish uslublari:** Universitetlar va ta'lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan kasbiy dasturlar, o'qitish uslublari, akademik va amaliy kurslar talabalarga o'z qiziqishlariga mos kasbni tanlashda yordam beradi. O'qituvchilar va murabbiylar talabalarga kasbiy sohalar bo'yicha maslahatlar berishi, kasbga nisbatan ijobiy qarashlarni rivojlantirishga yordam beradi.

- **Pedagogik ta'sir:** O'qituvchilar talabalarning kasbiy identifikatsiyasi rivojlantirishda psixologik va pedagogik yondashuvlar orqali ta'sir o'tkazadilar. O'qituvchilar va pedagoglar talabalarning kasbiy tanlovlarida qo'llab-quvvatlash va motivatsiya berish orqali ularning kasbiy yo'lini shakllantirishda yordam beradi.

3. Guruh ijtimoiylashuvi - Talabalar o'zining kasbiy identifikatsiyasini guruh muhitida, ya'ni tengdoshlar va guruhdagi boshqa a'zolar bilan o'zaro munosabatlar orqali rivojlantiradi. Guruh ijtimoiylashuvi talabani o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, ijtimoiy qabul qilinishini ta'minlaydi va uning kasbiy qarashlariga ta'sir ko'rsatadi:

- **Tengdoshlar ta'siri:** Talaba guruhidagi boshqa talabalar bilan muloqot qilish orqali o'zining kasbiy yo'nalishini yanada aniqlashtiradi.

Tengdoshlar orasida bir-biriga bo'lgan qo'llab-quvvatlash, maslahatlar va tajriba almashish, kasbiy identifikatsiyasi rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

- **Guruhdagi normativlar va qadriyatlar:** Guruhdagi ijtimoiy normativlar va qadriyatlar, talabani kasbiy qarashlarini o'zlashtirishiga yordam beradi. Masalan, guruhda mehnatga nisbatan ijobiy qarashlar, bilim olish va maqsadlarni amalga oshirishga bo'lgan intilish kasbiy identifikatsiya rivojlantirishga ta'sir qiladi.

- **Guruhdagi ijtimoiy rol:** Talaba o'zini guruhdagi ijtimoiy rolida qanchalik muhim va hurmatli his qilsa, uning kasbiy identifikatsiyasi ham shunchalik kuchli bo'ladi. Guruhda o'ziga xos o'rin topish talabani o'z kasbini tanlashda o'z ishonchini oshiradi.

Xulosa.

Xulosa qilish uchun shuni aytish kerakki, kasbiy identifikatsiyasini shakllantirishning hal qiluvchi omillari sub'ektning talablari bo'lishi mumkin, bu uning ehtiyojlarining ifodasi bo'lib, muayyan vaziyat motivlari paydo bo'ladigan semantik makonni qamrab oladi. Shuningdek, o'z-o'zini hurmat qilish, haqiqiy va bashorat qilingan professional o'zini o'zi qadrlashning ko'rsatkichi sifatida. Shuningdek, narx Shaxsiy yo'nalishlar kasbiy rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan shaxsiy shakllanish sifatida harakat qilishi mumkin yangi o'ziga xoslik, kasbiy hamjamiyat me'yorlari va

qadriyatlarini qabul qilish sifatida. Mas'uliyat, uning namoyon bo'lishi shaxsning sub'ektiv mezonlar asosida faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini nazarda tutadi. Talabalarda kasbiy identifikatsiyasining rivojlanishiga oila, ta'lim muassasalari va guruh ijtimoiylashuvi kabi ijtimoiy-psixologik omillar muhim ta'sir ko'rsatadi. Oila yoshlarning kasbiy yo'nalishlarini shakllantirishda asosiy boshlang'ich nuqtani taqdim etsa, ta'lim muassasalari va guruhlar kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirishda bilim, ko'nikma va ijtimoiy tajriba almashish

orqali o'z hissasini qo'shadi. Bu omillar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, talabaning kasbiy yo'lini tanlashda muhim rol o'ynaydi.

Takliflar:

1. Amaliy tajriba orttirish: Talabalar o'z sohasidagi amaliy tajriba orqali o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishlari lozim. Buning uchun stajirovka, amaliyot, volontyorlik kabi imkoniyatlardan foydalanish kerak.

2. Mentorlik tizimi: Tajribali mutaxassislar yoki o'qituvchilar tomonidan talabalar uchun mentorlik tizimini yaratish. Mentorlar talabalarga o'z sohasida maslahat berish, yangi bilimlarni o'rganishga yordam berishlari mumkin.

3. Ko'nikmalarni rivojlantirish: Tezkor texnologik o'zgarishlarga moslashish uchun talabalar yangi ko'nikmalarni egallashlari zarur. Xususan, raqamli texnologiyalar, kommunikatsiya, jamoada ishlash, muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarni o'rganish muhimdir.

4. Kasbiy sertifikatlar olish: Soha bo'yicha turli kurslar va sertifikatlar olish, talabalar uchun qo'shimcha imkoniyat yaratadi. Bu nafaqat bilimni oshiradi, balki ish bozorida raqobatbardoshlikni ham ta'minlaydi.

5. Professional tarmoq yaratish: Talabalar uchun seminarlar, konferensiyalar, yarmarkalar va tarmoq tadbirlari tashkil etish, ular o'z sohasidagi mutaxassislar bilan tanishish, tajriba almashish va yangi ish imkoniyatlarini izlashlariga yordam beradi.

6. Kreativ fikrlash va muammolarni hal qilish: Talabalar uchun innovatsion va kreativ fikrlashga asoslangan treninglar yoki loyihalar tashkil qilish orqali yangi yechimlar yaratish, kreativlikni rivojlantirish muhim.

7. Karyera rejasini tuzish: Talabalarga o'z kelajagi haqida aniq reja tuzishni o'rgatish. Bu, ular o'z maqsadlariga erishishda yo'l-yo'riq ko'rsatadi va o'z kasbida muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi.

8. Soft skill'larni rivojlantirish: Talabalar uchun muloqot, vaqtni boshqarish, etika, liderlik kabi ko'nikmalarni rivojlantirish ham juda muhimdir. Bu ko'nikmalar kasbiy muvaffaqiyatga olib keladi.

9. Shu bilan birga, universitetlar va ta'lim muassasalari talabalarga kasbiy rivojlanish uchun zarur imkoniyatlarni yaratish, ular bilan yaqin ishlash va yangiliklarga ochiq bo'lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020). -O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
2. Marta Ruiz-Corbella. Philosophy of Education and Education in Competences in the context of the European Higher Education Area // Philosophy of Education. 2011. № 4 (37). P. 5-17.
3. Cropley A. Using Assessment to Foster Creativity. - Singapore: World Scientific. 2007. Pp. 209-230.
4. Benjamin Crowell. Newtonian Physics // Light and Matter / Fullerton, California-2012. Benjamin Crowell Revolution in Physics The Modern Light and Matter Fullerton, California-2012
5. John Dirk Walecka. Introduction to Modern Physics // College of William and Mary:/ USA ,Jul -2008.
6. Schaeffer, D. (2002). Science Education and Capacity Building for Sustainable Development. ICSU Series on Science for Sustainable Development.-5. 31 p.
7. Абрамян Г.В. Теоретические основы профессионального становления педагога в информатсионной среде: автореф. дисс.пед.наук. – Санкт-Петербург: 2001. - 39 с.
8. Ангеловски К. Учителя и инновации. Книга для учителя. – М.: Просвещение, 1991, - С.159.

9. Арефьев Р.С. Формирование готовности к самопроектированию коммуникативной компетентности у студентов педагогического вуза: дисс....канд.пед.наук. – С.: 2004. – 190 с.
10. Бадагуева О.Р. Формирование готовности будущего учителя к инновационной деятельности в условиях педагогического колледжа: автореф. ... дисс.пед. наук. – Улан-Удэ, 2006. – 24 с.
11. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. / Результаты экспериментальных исследований. – М.: Директ-Медиа Паблишинг, 2008. – 613 с
12. Селиверстова М.В. Формирование управленческих компетенций учителя в условиях развития современного образования. Дисс. канд.пед.наук. – Ижевск: 2011. – 212 с.
13. Шадриков В.Д. Новая модель специалиста: инновационная подготовка и компетентностный подход // Высшее образование сегодня. – М.: 2004. – № 8. – С. 26-31.
14. Абулханова-Славская К.А., Березина Т.Н. Время личности и время жизни. – Санкт-Петербург: Алетейя, 2001. – 304 с.
15. Ананьина Е.В. Исследование готовности старшеклассников к профессиональному самоопределению [Электрон манбаа] / Ананьина Е.В. // "Грамота" Нашриёти. – Интернет манбаа: <http://www.gramota.net/materials/1/2008/4-2/29.html> (23.06.2016)
16. Дементьева Л.А. Актуальные модели профориентации и формы психологического сопровождения профессионального самоопределения учащихся / Психологическое сопровождение профориентации учащихся и работающих специалистов// Материалы научно-практической конференции. – Курган ГАОУ ИРОСТ, 2015. – С 88.
17. Зеер Э.Ф. Психология профессионального развития: учебное пособие. – М.: Академия, 2009. – 240 с.
18. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. – М.: Академия, 2007. – 304 с.
19. Мудрик А. В. Социализация человека. – М.: Академия, 2006. – 304 с.
20. Крившенко Л.П. Будущему учителю о профессиональном самоопределении школьников. – Москва, 2000. – 99 с.
21. Artiqboyeva Z.A. Malaka oshirish tizimida maktab matematika o'qituvchilarining kasbiy-metodik ko'nikmalarini takomillashtirish: ped.f.n. ... diss. – T.: 2004. – 163 b.
22. Muslimov N.A. Kasb ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped.f.dok. ...diss. – T.: 2007. – 315 b.
23. Karlibayeva G.YE. Bo'lajak fizika o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish: pedagogika fanlari doktori (DsS) diss. avtoreferati. – T.: 2018. – 58 b.
24. Raxmonov I.Y. Geometriyani o'qitish jarayonida talabalarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyasi: ped.f.nom. diss. – T.: 2012, – 160 b
25. Toshpo'latova M.I. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish. ped.f.dok. (PhD) diss. – T.: 2017. – 148 b.
26. Yuldashev M.A. Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirishda ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish: ped. fan.dok. ...diss. – T.: 2016. – 309 b.
27. Ximmataliyev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi (texnika oliy ta'lim muassasalari "Kasb ta'limi" yo'nalishlari misolida): ped. fan. dokt. ... diss. – T.: 2018. – 248 b.